

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

TILSHUNOSLIKKA KIRISH KURSIDAN USLUBIY TAVSIYALAR

(Chet tillar instituti talabalari uchun)

Samarqand davlat chet tillar instituti uslubiy
kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Samarqand - 2006

«Tilshunoslikka kirish» kursidan uslubiy tavsiyalar (Chet tillar instituti talabalari uchun).-Samarqand:SamDCHTI, 2006, 28 bet.

Tuzuvchi: **fil.fan.nom. Xayrullaev X.Z.**

Ushbu uslubiy tavsiyada «Tilshunoslikka kirish» kursining vazifasi, mazmun va mundarijasi, zaruriy ilmiy adabiyotlari, til strukturasi, tarixiy taraqqiyoti, uning jamiyatdagi vazifasi, tilshunoslik fanining asosiy bo‘limlari va bu bo‘limlarning tekshirish sohalari xususidagi muhim masalalar uslubiy yondashuv asosida yoritilgan. O‘quv rejasidagi har bir mavzuga oid aniq tavsiyalar berilgan.

Mazkur uslubiy tavsiya chet tillar instituti birinchi kurs talabalariga mo‘ljallangan, u material nuqtai nazaridan bir necha yildan buyon o‘qib kelinayotgan ma’ruzalarga asoslanmoqda.

Mas’ul muharrir: **fil. fan.dok., prof. Turniyozov N.Q.**

Taqrizchilar: **fil. fan.dok., prof. Karimov S.A.**
fil. fan.nom. Rahimov A.S.

Samarqand davlat chet tillar instituti, 2006.

SO‘Z BOSHI

«Tilshunoslikka kirish» kursi Respublikamiz oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalariga bakalavriat bosqichining birinchi kursida o‘qitiladi. Chet tillari bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga ham aynan ana shu o‘quv predmeti bo‘yicha bir yil davomida mashg‘ulotlar olib boriladi. Mashg‘ulotlar davomida tilshunoslik fani shug‘ullanadigan masalalar xususida atroflicha ma’lumotlar keltiriladi. Tilshunoslikning fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis bo‘limlari o‘rganadigan masalalar bilan bir qatorda umumiy tilshunoslikka tegishli bo‘lgan tilning paydo bo‘lishi, antik davrlar tilshunosligi, til va nutq, til va tafakkur, sotsiolingvistikaga oid masalalar hamda yozuv va harf xususidagi ma’lumotlarni ham imkon qadar yetkazish nazarda tutiladi.

Mazkur mavzularni chuqurroq o‘rganishda qat’iy reja asosida yoritib berilgan materialni topib tanishish bilan bir qatorda, mavzuni o‘zlashtirish, u haqdagi ma’lumotlarni to‘la tushunib yetish va ayniqsa, bu jarayonda nimalarga asosiy e’tiborni qaratish lozimligini anglab yetish ham birinchi kurs talabalari uchun ancha qiyinchiliklar keltirib chiqarishi tabiiydir.

Ushbu uslubiy tavsiya talabalarga ma’ruzalar jarayonida va amaliy mashg‘ulotlar hamda reyting ballari to‘plash uchun bajariladigan tayyorgarlik ishlarida qo‘l keladi degan umiddamiz.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Абдуазизов А. Ҳозирги замон инглиз тили назарий фонетикаси.- Тошкент, 1986.
2. Амирова Т.А. в. бош. Очерки по истории лингвистики. - М.: 1975.
3. Березин Ф.М., Головин В.Н. Общее языкознание. – М., 1979.
4. Березин Ф.М. История лингвистических учений. –М.: 1975.
5. Баскаков Н., Содиков А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981.
6. Бердиёров Х., Хўжаев Т., Йўлдошев Б. Умумий тилшунослик. – Самарқанд, 1974.
7. Будагов Р.А. Человек и его язык. -М.: Изд. МГУ, 1976.
8. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис.-М.: Высшая школа, 1981.
9. Гак В.Г. Актуальное членение и лексико-грамматическая структура предложения// Русский язык зарубежом, 1968, №3.
10. Дрошевский В. Элементы лексикологии и семиотике. - М., 1973.
11. Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Ч.II. – М., 1990.
12. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
13. Кодухов В.И. Введение в языкознание. –М., Просвещение, 1987.
14. Кодухов В.И. Введение в языкознание. –М., 1979.
15. Кодухов В.И. Общее языкознание. -М.: Высшая школа, 1974.
16. Кодухов В.И. Общее языкознание. -М.: Высшая школа, 1971.
17. Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения// Очерки по лингвистике. -М.: 1962.
18. Martine A. Langue et fonction.-Paris: 1965.

19. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
20. Общее языкознание. Внутренняя структура языка. -М.: Наука, 1972.
21. Рустамов А. Сўз ҳақида сўз. – Тошкент, 1987.
22. Реформатский А.А. Введение в языкознание. -М., 1961.
23. Реформатский А.А. Введение в языкознание. -М. Просвещение, 1967.
24. Реформатский А.А. Фонологические этюды –М.: Наука, 1976.
25. Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию.-М.: Прогресс, 1997.
26. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
27. Слюсарева Н.А. Проблемы функционального синтаксиса английского языка. – М., 1981.
28. Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. -М.: Просвещение, 1975.
29. Трубецкой Н.С. Основы фонологии.-М.: Наука, 1960.
30. Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш.-Тошкент: Фан, 2003.
31. Турниёзов Н.Қ. Тилнинг миллийлик меъёри ва миллийлик характери ҳақида // Поэтика ва лингвостилистика муаммолари. Халқаро конференция материаллари, 2002.
32. Turniyozov N. Tilshunoslikka kirish.-Samarqand, 2005.
33. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975.
34. Хайруллаев М., Ҳақбердиев. Мантиқ, – Тошкент, 1993.
35. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари.-Самарқанд, 2002.
36. Чейф У.Л. Значение и структура языка. -М., 1975.

MAVZU : TILSHUNOSLIK FANINING VAZIFASI VA O'RGANISH SOHASI

«Tilshunoslikka kirish» kursining asosiy vazifasi filologiya fakultetlari talabalariga tilshunoslikning fonetika-fonologiya, leksikologiya, grammatika sohalarining har biri o'rganadigan masalalari xususida to'la ma'lumot berish, shuningdek, tilning material nuqtai nazardan nimani taqozo etishi, tilning sistema ekanligi, tilning jamiyatdagi o'rni, uning rivojlanish qonuniyatlari, til va tafakkur, til va nutq, sotsiolingvistik masalalar, yozuv va uning turlari xususidagi ma'lumotlar bilan batafsil tanishtirishdan iboratdir. Talabalar tomonidan tilshunoslikning har bir bo'limi o'rganadigan masalalar nimalardan iborat ekanligi va har bir bo'limning qanday muammoli masalalari mavjudligini atroflicha chuqur o'zlashtirib olinishi juda muhimdir. O'qituvchi tomonidan mashg'ulotlar davomida aytilgan barcha ma'lumotlarni talaba to'liq o'zlashtirib, to'plangan material doirasida erkin ilmiy mushohada yurita olishi shart ekanligi ko'zda tutiladi. Bu borada nazarda tutilgan yuqori natijani qo'lga kiritish uchun, albatta, o'qituvchining ma'ruzalari hamda amaliy mashg'ulotlar uchun rejalashtirgan materiallari fan yutuqlarining eng so'nggi natijalariga asoslangan bo'lmog'i lozim. Mazkur mavzuga bag'ishlangan mashg'ulotda birinchi navbatda, tilning jamiyatdagi o'rni izohlanishi nihoyatda muhimdir. Tilning jamiyatdagi vazifasi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish jarayonida tilning tabiati, mohiyati, tuzilishi va bu strukturani tashkil etgan unsurlarning o'zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishlash tamoyillari singari juda muhim bo'lgan masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mashg'ulot davomida lingvistika fanining har bir bo'limi, va bu bo'limlarning o'rganish ob'ektini tashkil etuvchi muammolarni sanab o'tish, shu bilan birga, bu muammolar o'z ichiga qanday masalalarni qamrab olganligini ham talaba tomonidan tasavvur etilishi keyingi mavzularni to'liq tushunib o'zlashtirishga keng imkon yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tilshunoslik fanini mikrolingvistika va makrolingvistika sohalariga ajralishi va bu sohalarining har biri o'zining qat'iy o'rganish ob'yektiga ega ekanligi aniq tasavvur etilmog'i muhimdir. Shuni ham aytish lozimki, tilni faqat tilshunoslik fani emas, balki boshqa fanlar ham tadqiq etishi mumkinligi eslatilib, tilshunoslik va boshqa fanlarning tilni tekshirishdagi maqsad va rejalari turlicha ekanligini yoritish ahamiyatlidir.

Mavzuga doir eng muhim ma'lumotlardan yana biri shuki, til va nutqning o'zaro birligi va qarama-qarshiligi, ya'ni F.de Sossyurning «til va nutq» dixotomiyasi mohiyatining yoritilishidir. Chunki til va nutq dixotomiyasiga asoslangan ilmiy tadqiqot ishlari mavjud bo'lishiga qaramay, til birliklarining nutqqa ko'chirilishi bilan bog'liq muammoli masalalar tavsifiga endigina qo'l urilayotganini o'z kelajagining tamal toshini qo'yayotgan kelajak vorislari hozirdanoq bilib olishlari foydadan xoli emas.

MAVZU: TILNING PAYDO BO'LISHI

Tilning paydo bo'lishi masalasi juda ko'p davrlardan buyon kishilarni qiziqtirib kelgan va bugungi kunda ham bu masala kishilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Mazkur masala doirasida aytilgan fikrlar, erishilgan yutuqlar qanchalik salmoqli bo'lmasin, hozirgi kunga qadar bu borada hali aniq bir to'xtamga kelingani yo'q. Shuni inobatga olgan holda mavzuning yoritilishida inson tilining paydo bo'lishini insonning paydo bo'lishi bilan bog'lab o'rganish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligini yodda saqlash lozim. Chunki jonli mavjudotlar ichida so'zlashish imkoniyati faqatgina insonga xosdir. Buni, albatta, tirik mavjudotlarga xos bo'lgan bilish jarayoni bilan bog'lab o'rganish mumkin. Zero, bilish jarayoni ikki bosqichdan iboratdir: hissiy bilish, aqliy bilish. Hissiy bilish jonli mavjudotlarning barchasiga xosdir. Hissiy bilishning eng yuksak ko'rinishi refleks orqali namoyon bo'ladi. Bilish jarayonining

ikkinchi bosqichi faqatgina insonga xos bo'lib, aqliy bilish hisoblanadi. U inson tafakkuridan iboratdir.

Yaqin yillargacha insonning paydo bo'lishi odamsimon maymunlarning evolyutsiyasi bilan bog'lab izohlangan. Biroq hozirgi zamon fanining erishgan yutuqlari shuni ko'rsatadiki, odamsimon maymunlar bo'lmagan. Balki ibtidoiy odam turmush tarzi, tashqi qiyofasi, harakati bilan maymunlarga o'xshagan bo'lishi mumkin. Bu masalaga yondashishda yuqoridagi fikrni hisobga olish to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi. Chunki insonning nutq organlari faqat uning o'zigagina xosdir. Dastlab bu organlarning holati hozirgidek bo'lgan deb aytish mushkul ekanligini ham yodda saqlash lozim. Zero, inson nutq organining takomillashuviga mehnat va jamiyatning roli katta bo'lgan. Shunday ekan, mazkur masala tavsifini berishda ijtimoiy faktorlar (omillar)ga asoslanuvchi farazlarga tayanish orqali tilning paydo bo'lishini izohlashda ijtimoiy faktorlar (omillar) ning rolini alohida ajratib qo'yish maqsadga muvofiq emasligini yodda saqlash mavzu mohiyatini aniq va to'liq o'zlashtirish imkonini berishi shubhasiz.

Keltirilgan fikrimizni oydinlashtiradigan bo'lsak, biologik faktorlarga asoslanib tilning paydo bo'lganligini izohlovchi (tovushga taqlid va undov) farazlarida ijtimoiy omillar hisoblangan jamiyat va mehnatning, shuningdek, tafakkurning roli hisobga olinmaganligini kuzatamiz.

Inson tilining paydo bo'lishi masalasi bilan bog'liq bo'lgan bu mavzuni to'la o'zlashtirish uchun talaba, albatta, bu borada imo-ishoralarning o'rni qaydarajada ekanligini ham tasavvur etadigan bo'lsa, bu uning fikrini yanada oydinlashtiradi.

Umuman olganda, bu mavzuning yoritilishida professor-o'qituchi ham, talaba ham jamiyat, mehnat va tafakkurning rolini alohida e'tiborga oladigan bo'lsa kutilgan natijaga erishishni, ya'ni talabaning bu boradagi tasavvurlarining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

MAVZU: TILSHUNOSLIK TARIXIDAN MA'LUMOT

Tilshunoslik fani hozirgi taraqqiyoti bosqichigacha juda ko'plab ilmiy-nazariy yutuqlarga erishdi. Bu jarayon ko'p asrlik o'sish va taraqqiyot davrini o'z ichiga qamrab oladi. Fan taraqqiyoti mavjud muammoli masalalarga aniqlik kiritilishi natijasida yuzaga kelishi izoh talab etmaydi. Tilshunoslikning fundamental fan sifatida shakllanib takomillashuvida, til strukturasi va uning mavjud nazariy muammolarining yoritilishida va, umuman, fan taraqqiyoti dinamikasida juda ko'plab mutafakkirlar, olimlarning ulkan xizmati beqiyosdir. Tilshunoslik fani ham o'zining boy va uzoq tarixiga ega. Fanning ana shu tarixiy taraqqiyoti xususida qanchalik ko'proq ma'lumotga ega bo'lish hozirgi ilmiy jarayonni to'la idrok etish, baholash, munosabat bildirish va keyingi tadqiqotlarning to'g'ri va maqsadli rejalashtirilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ana shuni hisobga olgan holda, til ilmi bilan qiziquvchi kadrlarni tayyorlashda, albatta, bu mavzuning nechog'lik katta ahamiyatli ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Tilshunoslik masalalari bilan endigina tanishishni maqsad qilib qo'ygan talabalarga bu ma'lumotlarni qunt bilan o'rganish nihoyatda zarur.

Ma'lumki, tilshunoslik fani o'zining 2500 yildan ziyod tarixiga ega. Bu uzoq tarixning eng muhim va zaruriy bo'lgan ma'lumotlarini talabalarga tavsiya etishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu xususda, ayniqsa, qadimgi hind, yunon, arab tilshunosliklari tarixini o'rganish bilan bir qatorda qadimgi Xitoyda yaratilgan asarlarning mazmun va mundariyasi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining tilshunoslikka oid yaratgan ishlaridan ham xabardor bo'lish kutilgan natijaga erishishni ta'minlaydi.

Tilshunoslik fani tarixini o'rganar ekanmiz, turli davrlarda bu fanning rivoji jahonning hamma burchaklarida bir xil bo'lmaganligini, uning vujudga kelishi bilan bog'liq turli sabablar mavjud bo'lganligini kuzatamiz. Masalan, qadimgi hind

tilshunosligi bundan 2500 yil ilgari Veda dini madhiya va matnlarini, diniy adabiyotlarni tushunish hamda to'g'ri o'qiy bilish ehtiyojidan yuzaga kelganligini ko'ramiz. Bu o'rinda Panini grammatikasi haqidagi ma'lumotlar, eramizning V asrida Amara tomonidan yaratilgan lug'atning sanskrit tilining o'rganilishidagi ahamiyati bilan tanishish, ayniqsa, keyingi davrlarda hind tilshunosligiga mutaxassislar tomonidan bildirilgan ijobiy munosabatlar bilan talabalarning tanishtirilishi ulardagi mazkur masalaga oid tasavvurni yanada boyitish uchun xizmat qilishi shubhasiz.

Tilshunoslik tarixidan ma'lumot olishda qadimgi yunon olimlarining fikr va qarashlari bilan tanishish ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada mavjud erishilgan yutuqlarni atroflicha o'rganish bilan birga tilshunoslikka falsafa va mantiq fanlariga xos bo'lgan terminlarning o'tib qolish davri va sabablari haqidagi ma'lumotlar bilan ham tanishish keyingi darslarda rejalashtirilgan muammoli ma'ruzalarni to'g'ri va oson tushunish uchun zamin yaratadi. Xususan, yunon olimlarining gap bo'laklari, so'z turkumlari borasidagi fikrlarini o'rganish jarayonida yuqorida keltirilgan fikrga amal qilish lozim deb hisoblaymiz.

Tilshunoslik tarixidan ma'lumot beruvchi mashg'ulotlarning biri, albatta, qadimgi arab tilshunosligi tarixi bilan tanishishga qaratiladi. Bu jarayonda arab tilshunosligining vujudga kelishi VII-VIII asrlarda hukm surgan ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bog'lab o'rganilishi mavzu mohiyatini har tomonlama chuqur o'zlashtirilishi uchun xizmat qiladi. Bunda qadimgi arab tilshunosligining markazlari Kufa, Basra, Bog'dod shaharlaridagi ilmiy maktablar haqida ma'lumot berilishidan avval, albatta, Muhammad payg'ambarning kuyovi Hazrati Alining xizmatlari haqidagi ma'lumot bilan tanishish ahamiyatlidir. Chunki u Abul Osvad ismli olimga musulmonlarning ilohiy kitobi bo'lgan Qur'onning mazmun va mohiyatini to'g'ri anglab yetish, to'g'ri o'qish uchun filologik ilmga ehtiyoj sezilayotganligini hisobga olib ana shu masalada qo'llanma vazifasini bajara oladigan kitob yaratishni topshirgan. Keltirilgan bu ma'lumot arab

tilshunosligining shakllanishi uchun qo'yilgan dastlabki muhim qadam ekanligini e'tirof etish lozimdir. Shundan so'ng Xalil al-Faraxidi, Sebaveyx singari nafaqat arab tilshunosligining, balki jahon tilshunosligining mashhur olimlari yaratgan asarlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish bu boradagi tasavvurlarimizni yanada boyitadi.

Qadimgi arab tilshunosligi mavzusida arab tilshunoslari tomonidan yaratilgan leksikografik ishlarni yuzaga kelishi, ularning yutuq va mavjud ayrim nomukammalligi xususidagi fikrlarni o'rganishda ham talabalar jiddiy yondashuvlari talab etiladi. Chunki aynan ana shu o'rinda ular fan taraqqiyotida erishilgan bir yutuq mavjud ayrim qiyinchilik va nomukammalliklarning bartaraf etilishida xizmat qilishini ilk bor yaqqol tasavvur etadilar. Buni arab tilshunoslari tomonidan yaratilgan lug'atlarning foydalanish jarayonining osonlashtirilishi bilan bog'lab izohlaymiz. Arab lug'atlari tilshunoslikda uch undoshli o'zak haqidagi nazariyaning asoslanishi sababli alifbo tartibida berila boshladi. Bu esa, mavjud nomukammallikni bartaraf etdi. Fikrni oydinlashtirish maqsadida, Sog'aniyning 20 jildli, Al-Feruzobodiyning 60 jildli lug'atlarini eslatish va ulardagi kamchiliklar keyingi lug'atlarda tuzatilganligi, jumladan, al-Javharning 40 000 so'zli lug'ati va Al-Geravining lug'atida sheva materiallari kiritilmaganligi hamda, eng asosiysi, bu lug'atlarda so'zlar alifbo tartibida berilganligini keltirib o'tishning o'zi kifoyadir.

Darhaqiqat, arab tilshunosligi juda ko'plab yutuqlarga erishgan. Bu yutuqlarning salmoqli bo'lishida Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning xizmatlari ham nihoyatda katta ekanligini talabalar albatta bilishlari talab etiladi. Bunda Ibn Sinoning «Arab tili fonetikasi», Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat-ul adab», «Asos-ul balog'a», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Alisher Navoiyning «Muhokamat-ul lug'atayn» singari asarlarining mazmun va mohiyatini anglab yetish muhimdir.

MAVZU: FONETIKAGA OID MA'LUMOTLAR

Fonetika tilshunoslik fanining mustaqil bo'limlaridan biri bo'lib, unda tildagi tovushlar sistemasi akustik va artikulatsion jihatdan o'rganiladi. Nutq tovushlari fonetikaning birligi sifatida o'rganilganda fonlar deb yuritiladi. Fon hozirgi zamon tilshunosligida keng tarqalgan atamalardan biri bo'lib, nutqning eng kichik, ma'no anglatmaydigan birligidir. Tovushlarni til birligi sifatida o'rganganda til tovushlari yoki fonemalar deb ataymiz. Fonetika mavzusining o'rganilishida dastlab fon va fonemani farqlash lozimligiga ahamiyat berish lozim. Chunki bu orqali fonetikaning o'rganish sohasi qayerdan boshlanib, tugallanish nuqtasi qayer ekanligini belgilab olishga erishish mumkin. Bu esa, fonologiyaning o'rganish sohasini belgilab olishda aniq xulosalarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Darhaqiqat, fonologiya mavjud darslik va qo'llanmalarda ta'kidlanganidek, fonetikaning eng yuqori pog'onasini taqozo etadi. Bu fonologiya tovushni material nuqtai nazaridan, ya'ni akustik va artikulatsion tomondan emas, balki uning nutqda real qo'llanilganda namoyon bo'ladigan funksional jihatlari o'rganadi. Ma'lumki, ko'pchilik talabalar fonetika va fonologiya alohida sohalarni taqozo etishini bilsalar-da, ular ko'p o'rinlarda bir-biriga yaqin turuvchi bu ikki sohaning o'rganish ob'jektlarini aniq farqlab berishda qiynaladilar. Shu bois mazkur mavzuning yoritilishida, albatta, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, masala mohiyatini o'rganishga harakat qilishni tavsiya etamiz.

Shu narsa yaxshi ma'lumki, nutq tovushlari tilimizning material qismini, xom ashyosini tashkil qiladi. Tildagi fonemalar o'zidan katta bo'lgan eng kichik birlik, morfemalardan tortib matnning shakllanishigacha ishtirok etadi. Yuqorida aytilganidek, fonetika tovushning akustik va artikulatsion jihatlari o'rganadi. Buni o'rganishda talaba, albatta, tovushning sifat belgisi va miqdor belgisini bir-biridan imkon qadar farqlashga harakat qilmog'i zarur. Tovushning bu jihatlari uning akustik xususiyatlarini tashkil etadi. Artikulatsiyada ikki jihat, ya'ni

artikulatsiya oʻrni va artikulatsiya usuli farqlanmogʻi kerak. Ana shular bilan bir qatorda nutq tovushlarining tarkibidagi ovoz va shovqin ham hisobga olinishini esda tutish maqsadga muvofiq boʻladi. Chunki bu jihatdan ham tovushlar **jarangli** va **jarangsiz** deb ataluvchi guruhlariga ajratiladi.

Ushbu mavzuda nutq tovushlarining baʼzi hollarda meʼyor darajasidan chiqib ketish hollari haqida ham maʼlumot keltirilishi rejalashtirilgan. Mazkur maʼlumotlar orqali fon, fonema, allofon tushunchalari oʻzaro farqlanishi yaqqol koʻzga tashlanadi. Keltirilgan maʼlumotlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, fonema til birligidir. Shu sababli ham fonema nutqdagi nodifferensial oʻzgarishlarni taqozo etmaydi. Fonema til birligi sifatida mavhum birlik boʻlib, nutqda sodir boʻlishi mumkin boʻlgan yagona vazifani bajaruvchi barcha fonlarning umumlashgan koʻrinishidir. Allofonlarni toʻlaligicha nutq hodisasi sifatida oʻrganish maqsadga muvofiqdir. Bu oʻrinda talaba darslik va maʼruza matnida keltirilgan misollar tavsifiga eʼtibor qaratishi tavsiya etiladi.

Tilning tovush sistemasi va tovushlarning real qoʻllanishi haqidagi mavjud ilmiy asoslangan fikrlar bilan tanishar ekanmiz, bu borada tillarda unli va undoshlar miqdori son jihatdan bir xil emasligini eslatib oʻtish foydadan xoli emas. Zero, jahon tillarining ayrimlarida hammasi boʻlib 11ta tovush mavjud (gavay tilida 5 unli va 6 undosh) boʻlsa, baʼzi tillarda ularning soni 70 tagacha (abxaz tilida 2 unli va 68 undosh) yetadi. Biroq tillarda unli va undoshlar soni miqdor jihatdan turlicha ekanligi tillarning mavqeini yoki fikr ifodalash imkonini belgilovchi omil boʻla olmasligini talaba toʻgʻri anglab yetishi juda muhimdir. Chunki unli va undoshlar son jihatdan tilning tovush sistemasini toʻliq qoniqtiradi va fikr ifodasini berish uchun yetarli hisoblanadi.

Fonetikaga oid birliklar haqidagi maʼlumotlarni oʻrganishda tilning fonetik unsurlari ifoda materialiga ega ekanligi yoki, aksincha, oʻz ifoda materialiga ega emasligiga koʻra oʻzaro farqli guruhlariga ajralishiga ham ahamiyat bermoq muhimdir. Unga koʻra, oʻz ifoda materialiga ega boʻlgan

unsurlarni **segment unsurlar** deb, o'z ifoda materialiga ega bo'lmagan unsurlarni **supersegment unsurlar** deb ataladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan nutq tovushlari segment unsur sanaladi, chunki tovush bu jihatdan o'z ifoda materialiga egadir. Supersegment unsurlar jumlasiga **bo'g'in** va **ohang** kiritilishini yodda tutish darkor. Chunki bu fonetik unsurlar o'z ifoda materialiga ega emas. Bug'in o'z ifoda materialiga egadek tasavvur etilsa ham, u tovushlar orqali namoyon bo'layotgani isbot talab etmaydi. Urg'u va melodikaga e'tibor qilsak, u ham supersegment unsurdir. Tovush mavjud bo'lmas ekan urg'uni ham, melodikani ham, bo'g'inni ham tasavvur etib bo'lmaydi.

Fonetikaga oid materiallarni o'rganishda nutqning fonetik bo'linishi masalasiga ham alohida to'xtalish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki bu borada ham talabalar tomonidan e'tiborga olinishi lozim bo'lgan muhim jihatlar anchagina miqdorni tashkil etadi. Nutq fonetik jihatdan **fraza** (jumla), **takt**, **so'z**, **bo'g'in**, **tovushdan** iborat. Lekin bu o'rinda nutqni real qo'llanish jarayonida o'rganish lozim. Chunki nutqning fonetik bo'linishida so'zlovchining, nutq muhitining alohida o'rni bor.

MAVZU: MORFOLOGIYA

Morfologiyani o'rganish tilshunoslikka kirish kursida eng katta mavzulardan biri hisoblanadi. Mashg'ulotlar davomida morfema va uning turlari, morf, allomorf, grammatik shakl va grammatik ma'no, asosiy grammatik kategoriyalar, so'zlarni turkumlarga bo'lishning asosiy tamoyillari singari muhim masalalar o'rganiladi. Mazkur mavzuni o'rganishda eng avvalo, morfema va uning turlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shundan so'ng grammatik forma va grammatik ma'no haqida batafsil ma'lumot berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ana shunday muhim ma'lumotlarni o'zlashtirish morfologiyaning o'rganish sohasidagi asosiy birlik hisoblangan morfemani ilmiy jihatdan to'la mushohada eta olish imkonini beradi. Morfema, morf, allomorfning o'zaro birligi va farqli jihatlari xususida atroflicha fikr yurita olish darajasiga

erishgan talabani bo'lajak filologlar uchun eng zarur bo'lgan ma'lumotlardan biri, tilning grammatik vositalarini o'rganishga bemalol tayyor deb hisoblash mumkin. Shundan so'ng, tilning asosiy grammatik vositalari hisoblanuvchi affiks, urg'u, melodika, reduplikatsiya, ichki fleksiya, supplitivizm, yordamchi so'zlar, so'z tartibi haqida o'rganish qiyinchilik tug'dirmaydi. Nomlari sanab o'tilgan grammatik vositalarni mukammal o'rganish nihoyasida, albatta, ularni sintetik va analitik grammatik vositalarga ajratib olish lozim. Buni amalga oshirish orqali talabalar sintetik tillar va analitik tillar haqida tasavvur etishga harakat qilishlari mumkin bo'ladi. Sintetik grammatik vositalar affiksatsiya, ichki fleksiya, supplitiv usul hisoblansa, analitik grammatik vositalar yordamchi so'zlar, so'z tartibi, reduplikatsiya va ohang kabilardir. Ana shu mashg'ulot so'nggida tillardagi grammatik vositalarning ishtirokini hisobga olgan holda talaba o'zi tanish bo'lgan tillarni sintetik yoki analitik tillar sirasiga kirishi haqidagi munosabatni bildirib olish darajasiga erishishi ko'zda tutiladi. Albatta, bu jarayonda mavjud darslik, ma'ruzalar matni va mavzuga doir qo'llanmalardan unumli foydalanish, ulardagi ma'lumotlarni qiyoslab o'rganish tavsiya etiladi.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarni to'la o'zlashtirgan talaba asosiy grammatik kategoriyalar haqidagi bilimlarni o'rganishga tayyor hisoblanadi. Zotan, grammatik kategoriya tushunchasi grammatik ma'no va grammatik shakl orqali mavjuddir. Demak, grammatik kategoriya umumlashgan grammatik ma'nodir. Albatta, bu o'rinda umumiy grammatik ma'noni, aniqrog'i grammatik kategoriyani tashkil etuvchi ikki yoki undan ortiq bo'lgan xususiy ma'nolar bir-biriga qiyosan olinmog'i shart ekani esda tutilmog'i lozim. Masalan, son kategoriyasini olaylik. Ko'pchilik tillarda u bir-biriga qiyosan olinadigan ikki xususiy ma'nodan iborat: birlik va ko'plik. Ayrim tillarda (jumladan, arab tilida) juftlik ma'nosini ifodalovchi ikkilik ham mavjuddir. Ma'lumki, o'zbek tilida ko'plik **-lar** affiksi orqali beriladi, biroq birlikni ifodalovchi maxsus grammatik ko'rsatkich, affiks, mavjud emas. Ana shunday o'rinda maxsus affiks mavjud

bo'lmasa-da, grammatik ma'no (birlik) ifodalanadi. Bunday o'rinlarda nol morfema mavjud hisoblanadi va u aks ettirilishi lozim bo'lgan o'rinlarda Ø belgisi orqali ifodalanadi: kitob Ø – kitoblar. Arab tilida bu so'z son kategoriyasiga ko'ra uch ko'rinishga ega: bosh kelishikda: (birlik) **kitabun** (bir kitob) – (ikkilik) **kitabani** (ikki kitob) – (ko'plik) **kutub** (ko'p kitob).

Yuqoridagilarni batafsil o'rganish grammatik kategoriya tushunchasini to'la o'zlashtirish imkonini beradi. Shundan so'ng kelishik, egalik, zamon, rod singari grammatik kategoriyalarni o'rganishga kirishish mumkin. Biroq, ma'ruzalar matni fanning keyingi yutuqlarini ham aks ettirgan holda muammoli ma'ruza shaklida berilgani bois talaba bunday o'rinlarda auditoriyada o'qiladigan ma'ruzalarni ham qunt bilan tinglab borishi zarur. Tilning grammatik kategoriyalarini o'rganishda shunga alohida ahamiyat berish lozimki, bir tilda mavjud bo'lgan muayyan grammatik kategoriya ikkinchi bir tilda bo'lmasligi ham mumkin. Fikrimiz dalili sifatida kelishik kategoriyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hozirgi zamon ingliz tilida ikkita, rus va o'zbek tillarida oltita, eston tilida o'n beshta, venger tilida esa yigirmadan ortiq. Xitoy-tibet tillarida va hozirgi zamon fransuz tilida kelishik kategoriyasi umuman mavjud emas.

Jahon tillarida so'z turkumlarining soni ham turlichadir. So'zlarni turkumlarga ajratishning asosiy mezonlari nimalardan iboratligi haqidagi ma'lumotlarni ham morfologiya uchun ajratilgan mashg'ulotlarda atroflicha o'rganish nazarda tutilgan, albatta. Bu o'rinda quyidagilar hisobga olinishi zarur deb hisoblaymiz:

- 1) so'zlarning leksik grammatik ma'nolari;
- 2) har bir so'zning morfologik belgilari;
- 3) so'zlarning gapdagi sintaktik vazifasi;
- 4) so'zlarning distributiv xususiyatlari.

Yuqoridagilardan tashqari, bizningcha, so'zlarni turkumlarga bo'linishi g'arbda ham, sharqda ham ko'p asrlardan

buyon o'rganilib kelinayotgan munozarali masala ekanligiga ahamiyat berish va shu bilan bog'liq mavjud ma'lumotlarni o'rganish to'g'ri xulosa chiqarish uchun zamin yaratadi. Mazkur masala qadimgi hind tilshunosligida Panini, qadimgi yunon tilshunosligida Aristotel, Markaziy Osiyolik mutafakkirlardan Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariylar tomonidan o'rganilgani ma'lum. Darslik va qo'llanmalarda keltirilgan ularning fikrlari bilan tanishish masala mohiyati bilan qiziquvchi har bir talaba uchun muhim ma'lumot sifatida tavsiya etiladi.

MAVZU: LEKSIKOLOGIYA

Leksikologiya til fanining eng asosiy bo'limlaridan biri sanaladi. Shu bois ham mazkur sohaga doir ma'lumotlarni o'rganish uchun quyidagi asosiy masalalarga alohida e'tibor qaratishni o'rinli deb hisoblaymiz. Leksikologiyaning o'rganish sohasini aniq belgilab olish, uning bo'limlari va har bir bo'limning o'rganish ob'yektini aniq tasavvur etish, so'zning leksik-semantik xususiyatlarini chuqur o'rganish, lug'aviy va leksik ma'no, so'z, narsa va tushuncha orasidagi munosabatlar ana shular jumlasidandir.

Til fanining har bir bo'limi o'zining asosiy o'rganish birligiga ega. Masalan, fonetika va fonologiyada bunday birlik tovushlar, morfologiyada morfemalar bo'lsa, leksikologiyada asosiy tadqiq etilayotgan birlik so'z hisoblanadi. Shuni aytish lozimki, so'z nafaqat leksikologiyaning, balki tilshunoslikning barcha bo'limlarida muhim o'rganish ob'yektidir. Leksikologiyaning bo'limlari semasiologiya, etimologiya, frazeologiya, onomasiologiya singarilarning barchasi o'z o'rganish sohasiga ega bo'lib, ularning har birining vazifalari o'ziga xos ekanligini talaba birinchi navbatda yaxshi bilmogi zarur. Buni yaxshi o'zlashtirgan talaba leksikologiyaning o'rganish sohasi va vazifalari nimadan iborat ekanini aniq tasavvur eta oladi. Bundan tashqari, leksikologiyaning sinxronik va diaxronik leksikologiyaga bo'lib o'rganilishi ham mavjud. Bu esa, yuqoridagilardan farqli o'laroq, tilning hozirgi holati va bosib

o'tgan tarixiy evolyutsion yo'li jihatidandir. Tilning leksik qatlamini tasnifiy va qiyosiy o'rganish mumkinligi haqida ma'ruzalar matni va darslikda ma'lumot berilgan, ammo buni yuqoridagi bo'limlar bilan bir qatarga qo'yish maqsadga muvofiq emas. Chunki tasnifiy leksikologiyada alohida olingan muayyan bir tilning lug'at boyligini har tomonlama o'rganish nazarda tutilsa, qiyosiy leksikologiya o'z oldiga ikki yoki undan ortiq til leksikasini qiyoslab o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.

So'z tilshunoslikning hamma sohasida birdek o'rganilishi lozim bo'lgan birlik hisoblanishi yaxshi ma'lum. Biroq, so'zni voqelikdagi narsa, belgi, voqea, hodisa, harakatning bevosita belgisi deb tushunish izohtalabdir. Zotan, so'z voqelikdagi narsa, belgi, voqea, hodisa, harakat kabilar haqidagi tushunchani nomlaydi. Boshqacha aytganda, so'zning fizik qiyofasi bilan u anglatayotgan narsaning fizik qiyofasi o'rtasida hech qanday bog'liqlik mavjud emas. Hozirgi tilshunoslikda so'zning ma'nosini **segnifikat** termini bilan, u anglatgan predmet yoki hodisani **denotat** termini bilan nomlaymiz.

So'zga nisbatan qo'llanadigan terminlarga alohida ahamiyat qaratish zarurdir. So'zning qanday o'rinda ekanligini inobatga olib, turli terminlar qo'llaniladi. So'z lug'at boyligining ma'lum bir unsuri sifatida **vokabula**, ma'no ifodalashini nazarda tutib **semantema**, narsaning nomini atagani, tushuncha bildirgani uchun **leksema** deb ataladi. Mazkur terminlar xususida aniq tushunchaga ega bo'lish so'zning qanday o'rinda ekanligini to'liq tasavvur etish imkonini beradi. Bunday terminlarning qo'llanishi so'zning lug'aviy ma'nosini uning leksik ma'nosidan farqlab o'rganish borasidagi jarayonda qo'l keladi. Chunki so'zning lug'aviy ma'nosi bilan uning leksik ma'nosi hamma vaqt ham mos kelavermaydi.

So'zning ma'nosi haqida gapirilganda shunga etibor qaratish lozimki, ma'no va tushuncha o'rtasida muayyan farqli xususiyatlar mavjuddir. Bu haqdagi tasavvurni yanada oydinlashtirish uchun tilimizda mavjud bo'lgan tabu va evfimizmlarga ahamiyat berish tavsiya etiladi. Bundan tashqari,

tushuncha leksik ma'nodan farqli bo'lib, u faqat so'z orqali emas, balki so'z birikmasida ifodalanishi ham mumkin. Leksik ma'noning asosiy turlari **atash**, **ko'rsatish** va **ko'chma** ma'nodan iboratdir. Bu o'rinda ko'chma ma'no metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik asosidagi ma'no ko'chishi sifatida tushunilmog'i lozim. Ko'chma ma'noning bunday ko'rinishi, albatta, frazeologik birliklardagi ma'no ko'chishidan farqlidir.

MAVZU: SINTAKSIS

Sintaksisda so'z birikmasi, sodda gap va qo'shma gaplar, gap bo'laklari o'rganib kelindi. Tilshunoslik sintaksis sohasida ham boshqa sohalarida erishilgani kabi qancha ko'p taraqqiyotga erishgan bo'lmasin, bugungi kunga kelib bu borada aytilgan mavjud fikrlarga e'tibor beradigan bo'lsak, hali o'z yechimini to'la topmagan munozarali masalalar ham salmoqli ekanligining guvohi bo'lamiz. Unga ko'ra, tilshunoslikda nutq sintaksisi masalalarini chuqurroq o'rganishga qaratilgan sohaning rivojlanishi lozimligi kun tartibidan o'rin olmoqda. Chunki bugungi kunga kelib, so'z sintaksisining asoslanishi lozim ekanligi zaruriy holatga aylanib ulgurdi. Bu sohaning nomi kichik sintaksisdir. Ko'rinadiki, fan mudom taraqqiyotda. Hozirgi kun talabalari ham, albatta, fan taraqqiyotining yuksalishi va bu jarayonning qanday kechayotganligidan xabardor bo'lishlari ularning bilim darajalarini boyitishi shubhasiz. Shuni inobatga olgan holda sintaksisni o'rganishga ajratilgan mashg'ulotlarda, mavzuga doir qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishish jarayonida, kichik sintaksisning o'rganish sohasi, mikrosintagmatik munosabatlar, erkin so'z birikmalarining shakllanishi, predikativlik hodisasi, gap bo'laklari va gapning shakllanishiga doir yangi sintaktik nazariyalarning mazmun va mohiyati hamda bu tahlil usullarida qo'llanayotgan lingvistik terminlar tavsifiga jiddiy yondashishni tavsiya etamiz.

Kichik sintaksisning tekshirish ob'yekti sifatida yasama so'zlar, qo'shma so'zlar, so'z birikmalarining shakllanish jarayonini o'rganish deb qaralmoqda. Til va nutq bir vaqtning

oʻzida bir-biridan ajralmasligi, biri ikkinchisiz mavjud boʻlolmasligi bilan bir qatorda, ular mohiyatan va ishlash mexanizmlariga koʻra bir biriga zid ekanligi Ferdinand de Sossyur tomonidan asoslab berilgan “til va nutq” dixotomiyasi orqali talabalarga yaxshi maʼlum. Bunga koʻra til birliklari asotsiativ xarakter kasb etadi, yaʼni paradigmatic qator unsurlari virtual, tayyor, mavhum ekanligi bilan xususiylilik, aktuallik, hosilalik singari jihatlariga ega boʻlgan sintagmatik qator birliklaridan keskin farqlanadi. Sintagmatik qatordagi birliklar gorizontaal chiziq boʻylab shakllanar ekan, yasama soʻzlarning tarkibiy qismlari hisoblangan morfemalararo munosabatlarda ham ana shu holatning mavjudligi, qoʻshma soʻz komponentlari orasida ham subʼyekt – predikat, aniqllovchi – aniqlanmish, toʻldiruvchi – kesim munosabatlarining mavjud ekanligi olimlarning mikrosintagmatik munosabatlar haqidagi fikrlarining asosli ekanligini dalillay oladi. Shu oʻrinda, til birliklarining predikativlikka munosabati masalasiga ham eʼtibor qaratish muhim. Zotan, koʻp davrlardan buyon predikativlik faqatgina gapga xos ekanligi taʼkidlab kelingan edi. Biroq faktik til materiallari tahlili shuni koʻrsatadiki, mazkur hodisa nafaqat gapga xosligi, balki erkin soʻz birikmalari, hatto nutq muhiti bilan bogʻliq holda alohida olingan mustaqil soʻzning ham predikativli boʻlishi mumkinligi koʻrsatib berilmoqda.

Gap va uning boʻlaklarini oʻrganish borasida ham anʼanaviy tilshunoslikda mavjud boʻlgan ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqllovchi, hol singari tushunchalar bugungi kunga kelib koʻpchilik mutaxassisnlarni qoniqtirmayapti. Taʼkidlanishicha, mazkur terminlarning kelib chiqish asosi mantiq faniga xosdir. Tilda bir unsumni ikkinchisiga nisbatan yuqori mavqeda deb boʻlmaydi. Chunki til birliklari nutqda real qoʻllanilganda yaxlitlashgan bir strukturani tashkil etadi va fikr ifodasi uchun bu unsurlarning barchasi birdek ahamiyatga ega boʻladi. Zero, tilning jamiyatdagi funksiyasi ham aynan shundan iboratdir. Zamonaviy tilshunoslikda keng ahamiyat kasb etib borayotgan bunday ilgʻor nazariyalar bilan albatta tanishib borish talabalar uchun ham

muhimdir. Bu masala mohiyatini chuqurroq o'zlashtirish maqsadida quyidagilarga jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi:

1. Yuqorida keltirilgan fikrlarni o'zida mujassam etgan L.Ten' yerning verbosentrik nazariyasida gapning sintaktik tahlili bobida noan'anaviy munosabatni ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, gap bo'laklari **aktant** termini bilan beriladi. L.Ten' yerning mazkur nazariyasi bugungi kunda ko'plab yangi tadqiqot ishlarining yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda.

2. Shuni aytish lozimki, gapning funksional tahlili usullari so'nggi yillarda tilshunoslikning diqqat markazidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Biroq mazkur masala bobida tilshunoslarning fikrlari bir xil emas. Ayrim olimlar funksional tahlil deganda, an'anaviy tilshunoslikda qo'llanilib kelinayotgan bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga aratish deb tushunsalar, ayrimlari bu tahlilni gapning bevosita ishtirokchilari tahlili deb izohlaydilar. Gapning aktual bo'laklarga bo'linishi tahlilida talabaga eng muhim bo'lgan **tema** va **rema** munosabati, tema va remaning barqaror emasligiga ahamiyat berish lozimligini va gap komponentlarining funksional tahlilida esa, monemaning mazmun mohiyati, ularning har bir turi xususidagi ma'lumotlarni qiyosiy o'rganishni tavsiya etamiz.

MAVZU: YOZUV VA UNING TURLARI

Yozuv insoniyat tomonidan tildan keyin qo'lga kiritilgan eng katta kashfiyotlardan biridir. Zero, yozuv insoniyat hayotida asrlar mobaynida zamon va makonning to'siqlarini yengib o'tishda tengsiz xizmat qilib kelmoqda. Uning bu imkoniyatlarini aniq tasavvur etish uchun ajdodlardan avlodlarga meros qilib qoldirilgan yozma manbalarni eslashning o'zi kifoyadir. Yozuvning taraqqiy etgan, sayqal topib mukammallashgan shakllaridan foydalanayotgan hozirgi zamon kishisi ham uning tarixi, yozuvning qadimiy turlari, yozuvning tarqalishi singari ma'lumotlarni o'rganishi bu haqdagi tasavvurlarni kengaytiribgina qolmay, balki katta ilmiy nazariy ma'lumotlarni to'plash uchun

ham asos bo'ladi. Fandagi ma'lumotlarga va dastlabki yozuv turlari haqidagi materiallarga diqqat qilsak, yozuvdagi shakllar tabiatdagi, borliqdagi turli narsa va predmetlarni tasvirlash bilan bog'lanadi. Shu boisdan ham dastlabki yozuv **piktografiyaga** asoslanadi. Piktografiya esa, «*chizilgan*», «*yozaman*» degan ma'nolarni ifodalaydi. Yozuvning qadimiy turlaridan biri piktografik yozuv deb nomlanishi ham ana shundan dalolat beradi. Asrlar osha yozuv ham taraqqiy etdi va dastlab ma'lumotni nisbatan mavhumroq ifodalagan yozuv turlari keyinchalik inson fikrini to'liq va mukammal yoritish xususiyatlariga ham ega bo'lib boraverdi. Fikrimiz dalili sifatida darslik va ma'ruzalar matnida keltirilgan yozuvning **piktografik, idiografik, ieroglifik** va **fonografik** turlarini eslashning o'zi kifoyadir. Hozirgi davrda ko'pgina xalqlar fonografik yozuvning turli ko'rinishlaridan foydalanadilar. Bu yozuv dastlabki bosqichlarda bo'ginlarga asoslanuvchi **sillabik yozuv** deb nomlanuvchi ko'rinishga ega bo'lgan. Uning taraqqiyoti tovushga teng belgilardan iborat takomillashgan yozuv shakllarini keltirib chiqargan. Mazkur mavzuni o'rganishda talaba yozuvning rivojlanish bosqichlarini aniq tasavvur etish uchun ularda ma'lumot ifodasining mavhumlikdan aniqlikka, murakkablikdan soddalikka va bir necha gapga teng belgilarni qo'llashdan tovushga teng belgilarni qo'llashga erishuvini har tomonlama mushohada etmog'i lozim.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda yana shuni ham inobatga olish lozimki, yozuvning nomlari keltirilgan turlaridan tashqari, maxsus yozuv turlari ham qo'llaniladi. Yozuvning bunday turlaridan **stenografik** yozuv va **transkripsiyani** aytish mumkin. Maxsus yozuv turlari asosiy yozuvga yordamchi vosita sifatida qo'llaniladi. Stenografik yozuvdan majlis bayonlarini tez va to'liq aks ettirish maqsadida stenografistlar tomonidan foydalanilsa, transkripsiya so'zlarning talaffuzini aniq ko'rsatib berishda qo'llaniladi. Demak, yozuvning maxsus turlari ma'lum sohalarida mavjud ehtiyojlar tug'ilganda tor doirada qo'llanadi. Ma'ruzada va qo'shimcha adabiyotlarda mavjud Markaziy Osiyo xalqlarining yozuvi tarixi bilan ham tanishish talabalar uchun tavsiya etiladi.

Bu adabiyotlarda ular Markaziy Osiyoda ham yozuv jahon xalqlari yozuvi tarixi bilan bogʻliq holda rivojlanganligini va bu maskanlarda yozuvning qanday turlari keng tarqalganligi bilan bogʻliq muhim maʼlumotlarga ega boʻlishlari mumkin.

MAVZU: TIL VA TAFAKKUR

Til va tafakkur bir-biri bilan oʻzaro uzviy bogʻliqdir. Ayrim olimlarning fikrlariga koʻra, ular biri boshqasidan aniq farqlanmaydigan sinkritik hodisalar sifatida tasavvur etiladi. Albatta, til bilan tafakkurning oʻzaro munosabati tilshunoslikda ham, falsafada ham eng muhim murakkab muammolardan biridir. Shu bois mazkur mavzuni oʻrganishga qaratilgan mashgʻulotlarda talabalar bu muammolarning fanda anchagina oʻrganilganligini, ular oʻzaro dialektik bogʻliq boʻlgani holda, har biri faqat oʻzigagina xos boʻlgan xususiyatlariga koʻra farqlanishini ham eʼtibor markazida tutmogʻi muhim. Tafakkur insonning bilish jarayoni bilan bevosita bogʻliq boʻlib, sezgilar orqali bilishdan farqlidir. Zero, u ana shu sababdan ham bilish jarayonining yuqori bosqichi hisoblanadi. Demak, aqliy bilish va sezgilarga tayanuvchi hissiy bilish keskin farqlanadi. Tafakkurning muhim xususiyati sifatida uning til bilan bogʻlanganligini aytish mumkin. Chunki tilni tafakkursiz yoki, aksincha, tafakkurni tilsiz tasavvur etish qiyin. Biroq shunday boʻlsa-da, til va tafakkurning har biri oʻz ichki tuzilishiga va birliklariga ega. Masalan, leksema, soʻz-shakl, soʻz birikmasi va gap singarilar bevosita tilga (nutqqa) tegishli birliklar hisoblansa, tushuncha, fikr, hukm va xulosa singarilar tafakkur bilan uzviy bogʻliq birliklar hisoblanadi. Aytish joizki, til birliklari ifodalovchi, tafakkur birliklari ifodalanuvchi xususiyatlarga egadir. Til milliy xususiyatga ega, tafakkur esa umuminsoniy xususiyati bilan undan farqlanadi. Tafakkur shakllari va qonun-qoidalari barcha millatlarda bir xildir.

Yuqoridagilardan tashqari shuni ham aytish lozimki, til birliklari bilan tafakkur birliklarini tenglashtirib boʻlmasligi haqida maʼruzalar matnida keltirilgan misollarga alohida eʼtibor

qaratishni tavsiya etamiz. Chunki, mazkur masala doirasida aniq tasavvur hosil etish uchun soʻz bilan tushuncha aynan bir-biriga mos kelavermasligi haqida bilish muhimdir. Mustaqil soʻzlarni taqozo etuvchi soʻzlar tushuncha ifodalay olsa-da, biroq yordamchi soʻzlarni taqozo etuvchi til birliklari soʻz hisoblansa ham, tushuncha ifodalay olmaydi. Gapni muhokama, xulosa singari tafakkur birliklari bilan tenglashtirib boʻlmasligini talaba chuqur oʻzlashtirish uchun gapning barcha turlarini voqea-hodisaning mavjudligi, yoʻqligi, rostligi, yolgʻonligi kabi jihatlaridan tashqari, soʻroq, buyruq mazmunidagi gaplarning borligiga ham eʼtibor qaratish zarur. Zero, mantiq qonuniyatlari bunday xususiyatlarga tayanmasligi maʼlum.

MAVZU: SOTSIOLINGVISTIKA

Sotsiolingvistika tilshunoslik fanining alohida bir boʻlimidir. Bunda til va jamiyat oʻrtasidagi aloqaning sabab va mohiyati lingvistik nuqtai nazardan oʻrganiladi. Mazkur jarayonda ijtimoiy omillarning tilga taʼsiri, ularning til strukturasi qanday aks etishi singarilarni tadqiq etish nazarda tutiladi. Til va jamiyat uzviy aloqada boʻlib, ularning birini boshqasiz tasavvur etib boʻlmaydi. Til jamiyatda yashaydi. Jamiyat taraqqiyoti esa, maʼlum maʼnoda tilga tayanadi. Til ham jamiyat bilan aloqada rivojlanadi. Shunday boʻlmas ekan, u oʻzining jamiyatdagi kommunikativlik funksiyasini batamom yoʻqotadi va oʻlik tilga aylanadi.

Til ijtimoiy hodisadir. Shu bois uning oʻrni ijtimoiy hodisalar doirasida belgilanadi. Biroq tilning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan umumiy va farqli jihatlari mavjud.

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan umumiyligi jamiyatning tilsiz taraqqiy eta olmasligida koʻrinadi. U orqali jamiyat tarixiy taraqqiyoti davomida erishgan barcha maʼnaviy va madaniy boyliklari avloddan-avlodga etkazib beriladi.

Tilning tarixiy taraqqiyotida mavjud oʻziga xos qonuniyatlari hamda vazifasi boshqa ijtimoiy hodisalardan farqli ekanligini koʻrsatib beradi. Buni aniq tasavvur etish uchun esa, tilni jamiyatning huquqiy, diniy, siyosiy qarashlari bilan qiyoslash muhim hisoblanadi.

Tilning jamiyatdagi vazifasi uning kishilar o'rtasida aloqa quroli ekanligidir. Bu esa, tilning ijtimoiyligini yanada aniqroq tasavvur etish imkonini beradi. Sotsiolingvistikaning tilni o'rganish jarayonida unga yondashuvi aynan ana shu bilan bog'lanadi. Chunki bunda tilning ekstralingvistik hodisalar bilan bog'liqligi yoki tilning ijtimoiylik tabiati nazarda tutiladi. Bu holat tilning rivojlanishida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Til sathlari har biri o'z birliklariga va o'ziga xos kategoriyalariga, qonuniyatlariga ega ekanligi bilan bir-biridan farqlanadi. Shunday bo'lsa-da, til sathlari bir-biri bilan uzviy bog'liqlikka ega bo'lib, aniq bir qonuniyat asosida yaxlitlashgan sistemani tashkil etadi.

Til jamiyatdan tashqarida rivojlanmaydi. Uning funksional jihatlari, albatta, jamiyat bilan bog'liq holda bo'ladi. Demak, tildagi barcha o'zgarishlar ijtimoiy hodisa tufayli yuzaga keladi. Shunday ekan, sotsiolingvistikaning asosiy va umumnazariy muammosi tilni ijtimoiy hodisa sifatida tekshirish, uning tilshunoslikdagi o'rni va rolini belgilashdan iboratdir.

“TILSHUNOSLIKKA KIRISH” FANIDAN MUSTAQIL ISHLAR MAVZULARI VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

№	MAVZULAR	ADABIYOTLAR
1	Tilning kommunikativ funksiyasi	1. Филин Ф.П. Очерки по теории языкознания.- М., 1982. 2. Кодухов В.И. Введение в языкознание.-М.,1987. 3. Будагов Р.А. Человек и его язык.-М., 1976.
2	«Til va nutq» dixotomiyasi	1. Соссюр Ф.де. (Избранные) Труды по языкознанию.-М., 1977. 2. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование.-М.,1971. 3. Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш. –Тошкент, 2003.
3	Tillarning geneologik tasnifi	1.Кодухов В.И. Введение в языкознание.-М.,1987. 2.Реформатский А.А. Введение в языкознание. -М., 1967. 3.Гумбольдт В.ф. Избранные труды по языкознанию.-М., 1984.
4	Tillarning morfologik tasnifi	1. Реформатский А.А. Введение в языкознание. -М., 1967. 2. Кодухов В.И. Введение в языкознание. -М.,1987. 3.Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
5	Lingvistik tahlil metodlari	1. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 2. Засорина Л.Н. Введение в

		структурную лингвистику.-М., 1974. 3. Турниёзов Н. Ўзбек тили структур синтаксисига кириш.-Самарқанд, 1989.
6	Matn lingvistikasi	1.Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. - Самарқанд, 2004. 2.Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 3.Матн синтаксиси.- М., 1979.
7	Psixolingvistika va uning asosiy vazifalari	1.Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 2.Общее языкознание. -М., 1970. 3.Психолингвистика.-М., 1984.
8	Sintetik va analitik tillar	1. Кодухов В.И. Введение в языкознание. -М.,1987. 2. Реформатский А.А. Введение в языкознание. -М., 1967. 3.Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
9	Til unsurlarining paradigmatic va sintagmatic munosabatlari	1.Березин Ф.М., Головин В.Н. Общее языкознание.-М., 1979. 2.Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование.- М.1971. 3.Турниёзов Н., Муинова К. Гап ва унинг структураси.-Самарқанд, 1984.
10	Til birliklarining pog'onali munosabati	1.Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование.-М.1971. 2.Березин Ф.М., Головин В.Н. Общее языкознание.-М., 1979.

MUNDARIJA

1. SO‘Z BOSHI
2. ZARURIY ADABIYOTLAR.....
3. TILSHUNOSLIK FANINING VAZIFASI
VA O‘RGANISH SOHASI
4. TILNING PAYDO BO‘LISHI
5. TILSHUNOSLIK TARIXIDAN MA’LUMOT
6. FONETIKAGA OID MA’LUMOTLAR
7. MORFOLOGIYA.....
8. LEKSIKOLOGIYA.....
9. SINTAKSIS
10. YOZUV VA UNING TURLARI
11. TIL VA TAFAKKUR.....
12. SOTSIOLINGVISTIKA.....
13. MUSTAQIL ISHLAR MAVZULARI VA
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

Таҳрир - нашриёт бўлими:

Бошлик :	А.Эшқобилов
Техник муҳаррир :	О. Воҳидов
Муҳаррир :	З.Муқимова

СамДЧТИ нашриёт-матбаа маркази:
Самарқанд ш., Бўстонсарой кўчаси, 93.

Босишга рухсат этилди: 3.03.2006 й.
Адади 100 нусха. Қўғоз бичими А4.
Буюртма № 48
Times гарнитураси. Босма тобоғи 1,8.

